



IMPLISIT VA EKSPLISIT MA'NO NISBATI

To'rayeva Gulruh To'raqulovna

BuxDU o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqda ifodalanadigan implisitlikning murakkab semantik tarkibi turli vositalar orqali ifodalanishi tadqiq qilindi. Bundan tashqari, ushbu maqolada implikatura, uning turlari, xarakteristikasi va implisitlik yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: badiiy matn, til birliklari, implisit, qatag'on, badiiy mahorat, eksplisit, antroposentrik paradigma.

Implisitlik tushunchasi «til vositalarida bevosita ifoda topmagan, tinglovchi tomonidan nutqiy tuzilmaning voqelanish sharoitlari va eksplisit ifodalangan ma'no hamkorligidan kelib chiqib fahmlanadigan element» sifatida keyingi yillarda o'zbek nasrida paydo bo'lgan ko'plab ramziy-majoziy bayon asosidagi nasriy asarlarni tahlil qilishda qo'l keladi. Masalan, Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi, Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar", Murod Muhammaddo'stning "Lolazor", Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romanlari va boshqa ko'plab asarlarni ko'rsatish mumkin.

Hozirda ma'lumki, gapning ma'nosi asosan uning tarkibiy qismi bo'lgan lingvistik shakllar tomonidan anglashilishi keng tarqalgan. To'g'ridan-to'g'ri ma'noni anglash ma'lum bir ifoda yoki so'z birikmasining tagma'nosida aslida nima kodlanganligini yoki qanday mazmun yashiringanini aniqlash uchun mantiqiy taxminlar va xulosalar chiqarishni talab qiladi. Masalan:

Butter is too hard when you take it out of the fridge

Yuqoridagi jumlaning to'g'ridan to'g'ri tarjimasini (*Sariyog'ni muzlatgichdan chiqarganingizda, u juda qattiq bo'ladi*). Ammo, jumlada yashringan implisit ma'no aslida tinglovchiga (*Mutlatgichdan endigina chiqarilgan sariyog' nonga surtib yeyish uchun qattiqlik qiladi*) degan xabarni yetkazish ko'zlangan. Shunga ko'ra, tinglovchi keyingi safar uni oldindan olib qo'yishi kerakligini anglatishi mumkin; kinoyali istehzo so'zma-so'z ma'noning aksini bildiradi).

Antroposentrik tamoyilga ko'ra badiiy matnda nutqiy vaziyat polifonik mohiyat kasb etadi: «muallif-badiiy asarning yaratuvchisi; harakatlanuvchi shaxs; o'quvchi-badiiy asarning qayta "yaratuvchisi"». Ana shu nuqtai nazardan yondashilganda, oddiy diskursiv matnda adresant-adresat muloqoti amalga oshsa, badiiy matnning ma'no-mazmuni ikki tomonlama murakkablashadi. «Harakatlanuvchi shaxs»lar, ya'ni personajlarning o'zaro diskursiv muloqoti



jarayonidagi bazisda muallifning sub'ektiv munosabati ham anglashiladi. Masalan, -Menga qara, Qurbonoy. Qurbonoy xola qaddini rostladi. Komissar sut bidonini qor ustiga qo'yib, allanechuk qunishib turar, zahil yuzi o'ychan edi.

- Rostingni ayt! - dedi kinoyali iljayib. - Joynamoz ustida har kuni qarg'asang kerak meni? Ota-onang uchun, o'zing uchun... Faqat to'g'risini ayt!

- O'zing nima qipti? - dedi Qurbonoy xola dili og'rib. - Xex! - Komissar kaltakesakdek chirqillab kuldi. - O'zing bo'lmasa otaonang uchun... - Men hech kimni qarg'amiyman, - dedi Qurbonoy xola ishonch bilan. - Qur'onda bitilgan: Alloh har narsani ko'rguvchidir. Tangrim hammasini ko'rib turibdi.

Komissar birpas gezarib turdi-da, bidon bandidan ko'tardi. Indamay nari ketdi.

Ushbu parchada matnning implisit ma'nosi allyuziya vositasida yuzaga chiqadi. Allyuziya (lot. allusio - ishora, hazil) - barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usuldir. Mohiyatan, Sharq mumtoz she'riyatida keng qo'llangan talmeh san'atiga yaqin keladi. Farqli jihati shundaki, talmeh ko'proq mashhur tarixiy va badiiy faktlarga ishora qilinsa, allyuziyada ijodkor o'z zamonasidagi siyosiy, maishiy yoki badiiy faktlarga ishora qilishi ham mumkin. Ya'ni allyuziyada ishora ob'ektning doirasi kengroq. Qurbonoy xola tomonidan aytilgan «Tangrim hammasini ko'rib turibdi» jumlasida «Xudo jazoingni o'zi beradi» pressuppozitsiyasi ifodalangan.

An'anaga ko'ra, lingvistik kodlangan ma'no an'anaviy bo'lib, tilda istifoda etilishi orqali lisonda mustahkamlanadi va uni so'zlar, morfemalar, iboralar, idiomalar va konstruktsiyalar orqali etkazish mumkinligi e'tirof etiladi. Uning ikkita tavsifi, ehtimol, to'liq ekvivalent emas va an'anaviy ma'noning tabiati ham ko'proq o'ylashga loyiqdir. Yashirin ma'no (implisit ma'no) va an'anaviy ma'no va unga tegishli tushunchalar o'rtasidagi qarama-qarshilikni aniqlash bu sohada sezilarli yutuqlarga olib kelishi mumkin, ammo uning ilmiy izlanishlari ancha kengroqdir.

Nutqda ifodalanadigan implisitlikning murakkab semantik tarkibi, turli vositalar orqali ifodalanishi bugungi kunda ko'pchilikni qiziqtirib kelayotgan va tilshunoslik sohasida o'rganilishi muhim bo'lgan masalalardan hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida badiiy asarning zohiriy va botiniy ma'nolari xususidagi qarashlar mumtoz adabiyot doirasida qadimdan mavjud bo'lsa-da, zamonaviy badiiy matnlardagi implisitlik borasidagi izlanishlar endigina shakllanib bormoqda. Nutqda ifodalanadigan implisitlikning murakkab semantik tarkibi, turli vositalar orqali ifodalanishi bugungi kunda ko'pchilikni qiziqtirib kelayotgan



va tilshunoslik sohasida o'rganilishi muhim bo'lgan masalalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, yashirin ifodalanadigan implisit ma'nolar yozuvchining badiiy mahorati, til boyliklarini qay darajada o'zlashtirganligi va til birliklarining uslubiy imkoniyatlaridan mohirona foydalana olish qobiliyatiga ham uzviy bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida badiiy matnlar implisitni ifodalash vositalarini aniqlash uchun keng maydon bo'la oladi, degan xulosaga olib keladi. Yozuvchining o'z asari orqali nechog'li implisit axborot taqdim etish maqsadi, ifodalangan mazmunining yashirin bayonini anglash adresatning fikrlash qobiliyati hamda olam haqidagi tasavvurlari darajasiga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yermakova Ye.V. Implisitnost' v xudojestvennom tekste (na materiale russkoyazichnoy i angloyazichnoy prozi psixologicheskogo i fantasticheskogo realizma): Avtoref. diss. ... dok.fil.nauk. -Saratov, 2010.
2. Shamaxmudova A. Zamonaviy tilshunoslikda bilvositalik va implisitlik tushunchalari // Xorijiy filologiya.-Toshkent, -№1, 2017.
3. Yusupov O. Badiiy matnning lingvokognitiv xususiyatlari // TDPU Ilmiy axborotlari. Ilmiy-nazariy jurnal.-Toshkent, -№2(11), 2017.
4. Rabiyeva M. Difficulties of Differentiating Euphemisms and Dysphemisms //Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. - 2022. - T. 2. - №. 5. - С. 127-132.
5. Rabiyeva M. G., Asadova Z. Methods of Using Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts //Spanish Journal of Innovation and Integrity. - 2022. - T. 5. - С. 492-494.
6. Исломов Д. Ш. ЎЗБЕК ТИЛИДА ИЖРО ЭТИШГА ХОС БЎЛГАН ФОНОСТИЛИСТИК ВОСИТАЛАРНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ // "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS. - 2023. - Т. 9. - №. 1.
7. Исломов Д. Ш. ФРАНЦУЗ ТИЛИДА ИЖРО ЭТИШГА ХОС БЎЛГАН ФОНОСТИЛИСТИК ВОСИТАЛАРНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ // "CANADA" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION, SCIENCES AND HUMANITIES. - 2023. - Т. 9. - №. 1.



8. Islomov, Dilshod. "Ўзбек тилига махсус фонетик ва фоностилистик эффе́кт берувчи аллитерация тушунчаси ва санъати ҳақида." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 16.16 (2022).

9. Islomov D. ABDULLA QODIRIYNING HAYOTI VA UNING O'ZBEK ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2020. - Т. 6. - №. 2.

10. Islomov D. ФОНЕМА ВА ФОНОСТИЛИСТИКА ФОНЕМА ВА ФОНОСТИЛИСТИКА ТУШУНЧАЛАРИГА ДОИР ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ КАРАШЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2020. - Т. 1. - №. 1.

11. ДШ.Исламов - ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ КОНФЛИКТЫ И ИХ РАЗРЕШЕНИЕ - NovaInfo. Ru, 2016.

12. Islomov D. SECTION: CULTURAL SCIENCE //MODERN SCIENTIFIC RESEARCH. - 2019. - С. 21